

**MUHAMMAD YUSUFNING "ISTAK" SHE'RIDAGI O'SIMLIK VA  
DARAXT OBRAZLARI TASVIRI, ULARDAGI MA'NO QIRRALARINING  
ANIQLANISHI, TAHLIL QILINISHI**

**Mubinova Aziza**

Buxoro davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Muhammad Yusufning "Istak" she'ridagi fitonimik belgilar bayon etilgan,daraxt va o'simlik obrazlarining boshqa tabiat hodisalari bilan aloqasi o'r ganilgan.

**Kalit so'zlar:** she'riyat, shoir, beshik, xalq, tabiat, o'simlik, shamol, suv, tong, barg.

**Annotation:** In this article ,the phytonym symbols in Muhammad Yusuf's poem " Desire" were described, the connection of tree and plant images with other natural phenomena was studied.

**Key words:** poetry, poet, cradle, nation, nature, plant, wind, water, dawn, leaf.

O'zbek she'riyatining o'ta iqtidorli namoyondalaridan biri Muhammad Yusuf ijodining gullagan pallasi XX asr oxiri - XXI asr boshlariga, ya'ni O'zbekistonning yangi mustaqilligi davriga to'g'ri keladi. Uning qisqa, ammo yorqin hayotini Pushkining Bayron haqidagi so'zлari bilan izohlash mumkin: "U o'z she'rlarida ixtiyorsiz tarzda she'riyatning zavqu-shavqi ila iqrorlik bildirgan". Ijodining ilk yillari u kitobxonlarga o'zining o'zbek do'ppisi haqida she'ri bilan tanilgan, keyin uzoq yillar davomida bu she'r shoirning tashrif qog'oziga aylangan. Unda Muhammad Yusuf nima uchun o'zbeklar do'ppi kiymay qo'yganidan hayratlanadi. Axir, ushbu bosh kiyimining turli xillari bor. Yoki uni kiyish og'g'irlik qilib qoldimi? Xulosa quvonarli

emas: gap mos do'ppi yo'qligida emas - hamma gap uni kiyishga loyiq inson qolmaganligida.Muhammad Yusuf ruchkasini sindirgan kun...O'sha kuni uning ko'zlarji jiqqa yosh edi.O'zbekiston xalq shoiri, elimizning sevimli farzandi Muhammad Yusufning she'rlarini yod olmagan, qo'shiqlarini sevib tinglamagan inson kam bo'lsa kerak. Uning sodda, ravon va xalqchil she'rlarida katta-yu kichik o'z dard-u tashvishi, quvonch-u shodligini his etadi, shuning uchun ham har bir satrini yuragiga jo qiladi.Quyida biz yuqorida aytilgan fikrlarning isboti sifatida, adib she'rlaridan birini tahlil qilamiz:

*Shotut soyasida beshik bozori,*

*Saharlardan rayhon hidi anqiydi.*

*Beshiklar tebratib bog'chaxotin yig'lar:*

*Bittagina o'g'lim bo'lsa,mayliydi.*

Har bir xalqning o'z urf-odatlari,marosimlari,udumlari mavjud .Ular asrlar davomida shakllanib,sayqalanib ,rivojlanib ,o'sha millatning buyuk ma'naviy va madaniy merosiga aylanadi.Xalqimizda azal-azaldan ona tabiatga,undagi har bir tirik jonzotga g'amxo'rlik qilish,ozor yetkazmaslik ,uni muhofaza qilish,atrofimizni ko'kalamzorlashtirish ulug'vor fazilat sifatida shakllangan.Yuqorida berilgan she'rning birinchi bandida shotut daraxti tilga olingan.Bilamizki,shotut tutning bir turi sanaladi.Bu shifobaxsh daraxt O'zbekistonda qadimdan ekib ko'paytiriladi.Tutning boshqa navlariga qaraganda sekin o'sadi.Shotut yorug'sevar,sovuuqqa chidamli,namsevar daraxt.Shotutning mevasidan turli kasalliklarga davo sifatida foydalilanadi, jumladan,murabbo, inson organizmi uchun foydali bo'lgan ko'plab mahsulotlar tayyorlaniladi.Ijodkor o'z she'rini shotut daraxtining soyasida beshik bozori borligini aytish bilan boshlaydi.Xo'sh, she'rda nega aynan beshik bozori shotutning soyasida deb tasvirlangan ? Bu savolga javob she'rning keyingi bandlarida ochib berilgan.

She'rning ikkinchi misrasi saharlardan rayhon gulining hidi taralishini aytish bilan boshlanadi.Bunday yoqimli hid butun atrofga tarqalishini nazarda tutadi.Bu yerda nihoyatda chiroyli manzara tasvirlab berilgan.Tong manzarasining nazokatli tasviri

yaratilgan. Shoir erta tong yorishgan mahalda nafis rayhonning xushbo‘y ifori taralashi manzarasini chizgan. Tasavvur qiling: azon, subhidam, tong endi otayotgan vaqtida rayhonning muattar hidi butun tabiatini qoplab olgan, albatta bunday paytda insonlarning qalbiga bu yoqimli hid o‘zgacha halovat, xushnudlik baxsh etadi. Muhammad Yusuf har bir she’rida tabiat manzalarini namoyon etishda betakror o‘xshatishlar, uyg‘un ifodalar, ta’sir ko‘rsatish darajasi yuqori bo‘lgan ramzlar va obrazlardan foydalanishga harakat qiladi. U har bir obrazni xalqona ruhda, xalqiga tushunarli holatda ko‘rsata oladi, she’rlarida raxonlik, soddalik, ona xalqiga cheksiz samimiyat va muhabbat tuyg‘ulari yaqqol sezilib turadi. Uning she’rlari, har bir asarlari hissiyot to‘la qalb bilan mutolaa qilinadi, kutubxonlarda adib asarlariga oshno bo‘lgan ko‘plab yoshlarni ko‘rib, ko‘nglimiz quvonadi, beixtiyor shodlanamiz. Uning ijod namunalari yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo‘lganlar orasida ham birdek ardoqlanib, sevib o‘qiladi, haqiqatdan xabar beruvchi bitiklar sifatida qalbda abadiy muhrlanadi. Shoir nima bo‘lganda ham, qanday vaziyatda, sharoitda bo‘lishidan qat’iy nazar u tomonidan yaralgan ohanglarda jo‘shqinlik, Vatanparvarlik, insonparvarlik, sof insoniy tuyg‘ularni yaqqol aks ettirib bera oladi. She’rning uchinchi misrasida adib beshik tebratib bog‘chaxotinning ko‘z yosh to‘kishini tasvirlaydi. Nega bog‘chadagi xotin beshik tebratib yig‘laydi? O‘zbeklar qadimdan bolajon xalq. Ular bolalarini voyaga yetkazadilar, ulg‘aytiradilar, o‘stiradilar, tarbiya beradilar, oq-u qorani tanitadilar, katta hayotga qadam qo‘yishlarida poydevor, zamin bo‘ladilar. Misrada bog‘chadagi xotinning beshikni tebratib yig‘laganining sababi keyingi bandlarda izohlab berilgan, ya’ni uning farzandi bo‘lmaydi, u beshik quchoqlab mehribon Allohdan o‘ziga farzand berishini iltijo qilib so‘raydi. Beshik tebratib yig‘lagan ayol bittagina o‘g‘lim bo‘lsin deya o‘ksinadi va natijada ko‘zlaridan alam yoshlari sizilib chiqadi. Demak, birinchi banddan xulosa shuki, shotutning ko‘lankasida beshik bozorida beshikni tebratib ayol yig‘lagani, uning yagona orzu-umidi birgina farzandli bo‘lish istagini ifodalash bilan izohlaniladi. Shotut ko‘p meva soladigan daraxt bo‘lgani uchun mohir adib ushbu daraxtni tanlagen. Bu yerdagi mevani inson bolasiga qiyoslash mumkin. Shu jihatdan olib qaraganda she’r bejizga "Istak" deb nomlanmagan. Adib

she'r yozayotganida unga mutanosib bo'lgan ,sarlavhalarni,xulosalarni topish jihatidan ham tengsiz edi .Dunyoda farzandga muhtoj insonlar qancha?Har bir narsaning qadri-qimmati bo'lmog'i kerak.Har bir inson ota-onasini qadrlashi,hurmat qilishi,ular istagandek farzand bo'lishga intilmog'i va buning uchun qo'lidan keladigan barcha ishlarni qilishi kerak.Ota-onsa farzandi uchun hamma narsaga,hattoki jonini berishga ham tayyor turadi.Ota-onsa hayotda insonga eng yaqin do'st,sirdosh,yupanch bo'ladi.Har qanday holatda ham uning yonida bo'ladi,ularning bizga so'zlagan bir og'iz shirin so'zları dardlarimizga darmon bo'lib,hayotda hamisha olg'a qadam tashlashimizda,maqsadimizga erishish yo'lidagi barcha qiyinchiliklarni yengib o'tishimizda yordam beradi. Ota-onsa bebah...

*Sarin sabo esa qo 'shiqlar aytar,*

*Maysaga yonboshlab tinglar shudringlar.*

*Oq shiypon ortidan mo 'ralar oftob,*

*Hey,qizlar,turinglar !*

She'rning keyingi bandi yoqimli va toza ertalabgi shamolning ,ya'ni saboning qo'shiq kuylashi bilan boshlanadi. Aynan ushbu misra orqali biz tilimizning qanchalik boy, latofatli ekanligiga guvoh bo'lamiz.Buni sabo so'zida ko'ramiz. Sabo-tongda esadigan mayin shamol. Adib bu yerda uning sinonimlari shamol, sarsari girdibod va boshqalarni qo'llasa ham bo'lardi, bu yerda adibning so'z tanlash jihatdan mahorati yuksakligi yorqin ko'rsatib berilgan. Adib dilga xush yoqadigan tonggi shamolni qo'shiq kuylaganga qiyoslaydi. Sabo o'zining mayin esishi bilan diltortar navolarni kuylaydi. Keyingi misra birinchi misraning mantiqiy davomi sifatida qalamga tushirilgan. Ya'ni bunda yerdagi ko'm-ko'k tusga burkangan maysalar yonboshlab olib, shudringlar qo'shig'ini miriqib tinglayotgani bayon etiladi. Nihoyatda go'zal tabiat tasviri qalamga olingan. Buni tasavvur qilish insonga xush kayfiyat ulashadi. Tabiat tasviridan bunday go'zal namunalarni yarata olish ,kashf etish,she'riyatda tatbiq etmoqlik faqatgina mahoratlari shoirning satrlaridan chiqishi va yurakdan chiqib yurakka yetib borishi shubhasizdir. Muhammad Yusuf haqiqatan ham ,tengi yo'q mahorat egasi bo'lgan. Keyingi misrada quyosh oq shiyponlar orasida

mo‘ralayotganga qiyoslanilgan. Shiypon bilamizki, dalada ishlayotganlarning dam olishi va ovqatlanishi uchun maxsus yozda qurilgan bino. Ko‘plab asarlarda bu terminga duch kelishimiz mumkin. Masalan: Said Ahmadning "Ufq" romani bosh qahramoni Tursunboy ota-onasidan ,Vatanidan qochib, ularga yaqin atrofdagi shiyponda yashaydi.Sababi-u harbiy xizmatga ketayotganida xizmat qilishdan bosh tortib, qochib ketadi. Shiyponlar orasidan kunning mo‘ralab, poylaganday chiqib kelishi go‘yoki qizlarni uyqudan uyg‘otib yuboradigandek... Hey, qizlar turinglar! deya ularga xitob qilib,ularni turishga da’vat etayotgandek aks ettirilgan.

*Chumoli yopishar yalpiz bargiga,*

*Irmoq unga suvlar sochib hiringlar.*

*Brigadir planning o‘ylaydi xunob:*

*Hey,qizlar, turinglar!*

Keyingi bandda ijodkor foydali va shifobaxsh o‘simlik bo‘lmish yalpiz bargiga mehnatsevar va tirishqoq chumolining yopishganini tasvirlagan. Chumoli, odatda, yerda ko‘zga ko‘rimmagan holatda yuradi.Lekin bu yerda u yalpizning bargida deya ko‘rsatib berilgan.Ya’ni Muhammad Yusuf hayotimiz davomida e’tibor bermaydigan detallarimizni ham o‘z she’riga shunday singdirib yuboradiki,uni o‘qib hayratda qolamiz .Demak,chumoli yalpizning xushbo‘y ifori borligi uchun uning bargiga mahkam o‘rnashib olishga harakat qiladi.Navbatdagi misrada daryolarga borib qo‘shiladigan jilg‘alarning, ya’ni irmoqlarning chumoliga suvlar sochib ,ovoz chiqargan,go‘yoki chumolini yalpiz bargiga yopishib olgani uchun "jazolayotgandek" tuyiladi. .Irmoqning chumoliga suvlar sepib,so‘ng o‘zi baland tovush chiqarib kulishi ,hiringlashi adabiyotimizda ilgari qo‘llanilmagan ,bejirim,ajib-u nafis o‘xshatish bo‘ldi.Bunday o‘xshatishni idrok eta olish,uni yuzaga chiqarish insondan buyuk mahoratn ,tinimsiz mehnatni talab etadi.Muhammad Yusuf mana shunday buyuk tug‘ma iste’dod sohiblaridan biri edi...Keyingi misrada dalada brigada bo‘limining boshlig‘i bo‘lgan brigadir o‘zining rejalarini o‘ylab, toqati toq bo‘lganini,asabiylashganini birgina jumla bilan: Hey,qizlar turinglar! ifodasi bilan

izohlaydi.Uning asabiy bo‘lishiga qizlarning uyg‘oq emasligi sabab qilib ko‘rsatilgan.Shu tariqa betakror jumlalardan go‘zal bir she‘r paydo bo‘lgan.

Xulosa: Muhammad Yusuf xalqimizning suyukli shoiri,xalqimiz qalbida porlagan va hech qahon so‘nmaydigan boqiy quyoshidir. Adibning boy ma’naviy,madaniy merosi o‘sib kelayotgan kelajak avlodni vatanparlik,xalqparvarlik, Ona yurtga sadoqat,sof insoniy his-tuyg‘ularni asrab-avaylashga chaqiriqdek qulqlari ostida jaranglaydi. Muhammad Yusuf she’rlarida samimiyat,soddadillik,o‘zgacha mehr,nekbin hislar ufurib turadi.Uning she’rlari kelajak avlodga o‘zlikni anglab yetishda,o‘tmish ajdodlarning tajribasini o‘rganib,ulardan o‘rnak olishda,ular yo‘l qo‘ygan xatolardan xulosa chiqarishda bevosita ko‘mak beradi. Muhammad Yusufning beqiyos merosi ,so‘nmas xotirasi qalbimizda muhrlanib qoladi va kelgusi avlodlar uchun katta tajriba maktabi vazaifasini bajaradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. M.Yusuf "Saylanma" She’rlar.Dostonlar.Shoir haqida xotiralar."Sharq" Nashriyot - Matbaa Aksiyadorlik Kompaniyasi Bosh Tahririysi T: ,2019 285 bet
2. M.Yusuf "Xalq bo‘l, elim 2017,288 bet. Tuzuvchi :Nazira Salomova .O‘z NMUI nashriyoti
3. M.Yusuf "Saylanma" . "SHarq" Nashriyot-Matbaa-Aksiyadorlik Jamiyati 2007,268 bet
4. M.Yusuf "Quyoshga qarab oqqan suv" Nurafshon business Nashriyoti,2019 She’rlar,nazm. 232 bet
5. xabar.uz sayti
6. saviya .uz sayti
7. zyonet.uz sayti
8. arbob.uz sayti
9. Google.Vikipediya
10. Kh.davron elektron kutubxonasi